Qiziltepa tuman Axborot-kutubxona markazi Axborot-bibliografiya xizmati



“Oila – yurakdagi eng iliq maskan”

Qiziltepa tuman Axborot-kutubxona markazi
Axborot-bibliografiya xizmati

“Oila – yurakdagi eng iliq maskan”

15-may Xalqaro oila kuniga bag‘ishlab kitobxonga esdalik

Qiziltepa

UO’K 82-5

KBK 84

O 11

Oila-yurakdagi eng iliq maskan : [Matn] : 15-may Xalqaro oila kuniga bag‘ishlab kitobxonga esdalik / tuzuvchi : D.Hamroyeva. – Qiziltepa : Qiziltepa tuman Axborot-kutubxona markazi, 2025. - 14 b.

Oila va jamiyat tinch-totuv va farovon bo‘lishi uchun muqarrar zaruriy bir shart-sharoitlar lozim bo‘ladi. Bunday sharoit birinchi navbatda oilaning salohiyati va barqarorligini ta'minlashdan boshlanadi. Shu sababdan dinimiz oilaga, uni barpo etish jihatlariga katta e'tibor qaratadi. Oila binosini mehr-muhabbat asosida haqiqat va adolat zaminiga qurib, mustahkamlab, baxt-saodatga erishishga chorlaydi.

Ushbu kitobxongan esdalik Axborot-kutubxona markazi xodimlari, maktab kutubxonachilari, aholi, ta'lim muassasalari foydalanishlari uchun mo‘ljallangan.

Inson baxtliman deyishga qanchalik haqqi bor?

Agar oilang bilan sen baxtli bo‘lsang, baxtliman deyishga haqqing bor.Faqat oilang emas, xalqim baxtli bo‘lsa men o‘zimni baxtli deb bilaman”

Sh. Mirziyoyev.

15 MAY – XALQARO OILA KUNI



Ushbu kunning qisqacha tarixi

1993 yil 20 sentyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Xalqaro oila yili to‘g‘risida” gi rezolyusiyasi qabul qilingan. Ushbu xalqaro Hujjatiga muvofiq 1994 yildan boshlab 15 may – Xalqaro oila kuni (International Day of families) sifatida dunyoning deyarli barcha davlatlarida nishonlanadi. Xalqaro oila kunini nishonlashdan maqsad oilalar bilan bog‘liq muammoli masalalarga davlat va jamoatchilik e’tiborini qaratish, oilalar ahvoliga ta’sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayonlar haqidagi bilimlarni chuqurlashtirishdan iborat. Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida azaldan insoniy qadriyatlar, milliy madaniyat va avlodlar davomiyligini asrovchi qo‘rg‘on, barqarorlik va taraqqiyot omili bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi.

Oila – muqaddas dargoh

Oila – muqaddas va qutlug‘ dargoh. Inson shu dargohda tug‘iladi va voyaga yetadi. Oilani jamiyatning kichik bir bo‘g‘iniga qiyoslash

mumkin. Ma’lumki, oila – insonning tug‘ilishidan to umri poyoniga qadar bo‘lgan hayot mazmunini qamrab olgan, ta’lim-tarbiya, iymon-e’tiqodning asosiy poydevori shakllanadigan maskan. Mehr-oqibat rishtalarini, odamiylik mezonlarini, milliy qadriyatlarni e’zozlab-avaylaydigan, kelgusi avlodlarga to‘kis yetib borishini ta’minlaydigan mo‘tabar dargoh.

Darhaqiqat, xalqimiz azaldan oilani muqaddas, muborak dargoh sifatida e’zozlagan, bu qo‘rg‘onga zavol yetmasligi uchun asrab-avaylashgan. Zero, oilani boshqarish, farzandlarni xalqqa, vatanga munosib avlod qilib yetishtirish mas’uliyatli vazifadir. Afsuski, ba’zan bu borada bilim, tajriba va tarbiyaning yetarli bo‘lmagani tufayli ko‘prok yoshlar o‘rtasida ajrashish holatlari uchrab turadi. Arzimagan bahonani sabab qilib oilalar buzilib, begunoh va beg‘ubor farzandlar tirik yetim bo‘lib qolmokda. Ayol oqila, fozila, jonkuyar bo‘lsa va turmush o‘rtog‘ini qadrlasa, er bosiq, jiddiy, mehribon, farzandlari, ahli ayoliga jonkuyar bo‘lsa, oila mustahkam bo‘ladi. Er-xotin o‘rtasida mehr-oqibat bo‘lishi kerak.

Yurtimizda oilani mustahkamlash, sog‘lom va barkamol avlodni kamol toptirish borasida izchil va samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, yangilangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida avvalgi “Oila” bobi – “Oila, bolalar va yoshlar” deya qayta nomlandi, shuningdek ushbu bobga qo‘shimcha ravishda yoshlarga oid alohida modda kiritildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 76 moddasida: “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir”, deyilgan.

Oila azal-azaldan insonni har tomonlama barkamol va komil qilib voyaga yetkazadigan, insoniy fazilatlar va xislatlarni shakllantiradigan, o‘zlikni milliy, mintaqaviy, umumbashariy va borliq xaqiqati darajasida anglatadigan, milliy hamda umumbashariy qadriyatlarga sadoqat ruhini kamol toptiradigan beqiyos va betakror tarbiya, ma’naviyat, ma’rifat o‘chog‘i hisoblanadi. Oila bergan mehru ma’rifatni inson boshqa hech qaerdan topa olmaydi.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda yosh oilalar uchun qurilayotgan zamon talablariga to‘la javob beradigan uylar, ularga berilayotgan uzoq muddatli imtiyozli kreditlar oila institutiga qaratilayotgan katta e’tiborning yana bir tasdig‘idir. Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlovchi, milliy qadriyatlar rivojini ta’minlovchi,

ma’naviy va jismoniy barkamol avlodni dunyoga keltirib, tarbiyalovchi maskandir.

Jamiyat va oila

Oila - jamiyatning asosiy boshlang‘ich bo‘g‘ini, go‘zal urf-odatlar, milliy qadriyat va an’analarlarni o‘zida asrovchi, asrlar osha tarbiyada o‘ziga xos milliylikni shakllantiruvchi muqaddas maskan. Oila tinch bo‘lsa, mahalla tinch, jamiyat farovon, davlat mustahkam bo‘ladi. Ezguliklar oiladan boshlanadi, undan mahallaga ko‘chadi, jamiyatga kirib boradi.

Vatanga sadoqat, ota-onaga oqibat, oila a’zolari o‘rtasida o‘zaro hurmat, mehr-muruvvat omillari o‘sib kelayotgan yosh avlod ongiga oilada singdiriladi. Oiladagi ma’naviy muhitni barqarorlashtirish ota-onada farzandlar, farzandlar oldida ota-onaga nisbatan burchlarini, ularning jamiyat oldidagi mas’uliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Insonning hayoti oiladan boshlanadi. Oila – hurmat, hamjihatlik va mehr-muhabbat manbaidir. Oila farovonligi – mamlakat taraqqiyotining o‘lchovidir. Oila – hayot abadiyligini saqlaydigan, ko‘p asrlik urf-odatlarimiz, an’analarimiz va qadriyatlarimizni avloddan-avlodga meros qilib qoldirib kelayotgan muqaddas qo‘rg‘ondir. Shu boisdan ham yurtimizda oilalar mustahkamligini ta’minlash, unda o‘zaro mehr-oqibat, hamjihatlik va do‘stona munosabatlar hukmron bo‘lishiga erishish uchun alohida e’tibor qaratilmoqda.

Buyuk ma’rifatparvar bobolarimiz ta’kidlaganidek, tarbiya, avvalo, oiladan boshlanadi. Darhaqiqat, har tomonlama yetuk, barkamol va komil shaxsni tarbiyalashda oilaning o‘rni beqiyos. Tarbiyaning asosiy o‘chog‘i hisoblangan oila millat davomiyligini saqlash, milliy qadriyatlar rivojini ta’minlaydigan yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma’nan va jismonan sog‘lom qilib tarbiyalaydigan muqaddas maskandir. Ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-madaniy muhit sog‘lom qaror topgan oilada bolaning ongi yaxshilik, ezgulik, mehr-oqibat, odamiylik, or-nomus, g‘urur, samimiyat, to‘g‘riso‘zlik kabi fazilatlar bilan to‘lib, jamiyatga kerakli inson sifatida voyaga yetadi.

Mamlakatimizda baxtli va farovon oilalar soni ko‘paysin. Har bir oila tinch-osoyishta va baxtli bo‘lib, yurtimiz ravnaqi va barqarorligiga asos bo‘lsin.

15-may – Xalqaro oila kuni: Muqaddas dargohingizni asrang, himoya qiling!

Xalqaro oilalar kuni har yili 15-may kuni nishonlanadi . Ushbu kun BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1993-yilda A/RES/47/237 rezolyutsiyasi bilan e’lon qilingan va xalqaro hamjamiyatning oilalarga berayotgan ahamiyatini aks ettiradi.

Xalqaro kun oilalar bilan bog‘liq muammolardan xabardorlikni oshirish va oilalarga ta’sir qiluvchi ijtimoiy, iqtisodiy va demografik jarayonlar haqidagi bilimlarni oshirish imkonini beradi.

Har yili 15-mayda oilalardagi muammolarni odamlar, jamiyatlar va hukumatlar hal qilishi uchun qanday choralar ko‘rilishi kerakligiga oid xabarlar e’lon qilinadi. Shuningdek, bu kun mustahkam oilaviy birlik jamiyat va millatlarni mustahkamlashga qanday yordam berishini namoyish qilish kuni ham hisoblanadi.

Zero, O'zbekistonda, qolaversa, Sharq dunyosida oila qadimdan muqaddas dargoh sifatida qadrlangan. Oilada vatanga sadoqat, ota-onaga oqibat, oila a’zolari o‘rtasida o‘zaro hurmat, mehr-muruvvat omillari o‘sib kelayotgan yosh avlod ongiga singdirilib, oiladagi ma’naviy muhitni barqarorlashtirishga, ularning jamiyat oldidagi mas’uliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Bugun 15-may - Xalqaro oila kuni



1994-yildan beri 15-may “Xalqaro oila kuni” sifatida butun dunyoda nishonlab kelinmoqda. Ushbu kunning belgilanishidan maqsad oilaning ko‘plab muammolariga jamoatchilik e’tiborini jalb qilishga qaratilgan.

Har yili 15-mayda oilalardagi muammolarni odamlar, jamiyatlar va hukumatlar hal qilishi uchun qanday choralar ko‘rilishi kerakligiga oid xabarlar e’lon qilinadi. Shuningdek, bu kun mustahkam oilaviy birlik jamiyat va millatlarni mustahkamlashga qanday yordam berishini namoyish qilish kuni ham hisoblanadi.

Zero, yurtimizda, qolaversa, Sharq dunyosida oila qadimdan muqaddas dargoh sifatida qadrlangan. Oilada vatanga sadoqat, ota-onaga oqibat, oila a’zolari o‘rtasida o‘zaro hurmat, mehr-muruvvat omillari o‘sib kelayotgan yosh avlod ongiga singdirilib, oiladagi ma’naviy muhitni barqarorlashtirishga, ularning jamiyat oldidagi mas’uliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

15 MAY — XALQARO OILA KUNI: HUQUQIY ASOS VA MAVJUD MUAMMOLAR



Xabaringiz bor, 2018-yil 27-iyun kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan **«O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qaror** qabul qilgan edi. Mazkur hujjatga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida ushbu yo‘nalishdagi asosiy vazifalar belgilab olingan.

Jumladan, O‘zbekistonda oilani rivojlantirishga global darajada Birlashgan Millatlar Tashkilotining **Barqaror taraqqiyot maqsadlari** doirasida, shuningdek, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha **Harakatlar strategiyasi doirasida** qaraladi.

Shu bilan birga, ushbu sohada davlat siyosatini muvaffaqiyatli olib borishni to‘xtatib turuvchi bir qator tizimli muammo va kamchiliklar oila institutini mustahkamlash sohasidagi islohotlarni to‘liq ro‘yobga chiqarishga va belgilangan maqsadlarga erishishga to‘sqinlik qilmoqda.

Chunonchi:

• **birinchidan**, tegishli idora va tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda monitoring qilishning ta'sirchan tizimi mavjud emas, oilani rivojlantirish masalalari bo‘yicha davlat, fuqarolik jamiyati institutlari va xususiy sektor hamkorligi past darajada;
• **ikkinchidan**, oila institutini mustahkamlash sohasidagi ilmiy tadqiqotlar ixtisosligi tor, hozirgi hayot voqyeligidan uzilib qolgan, ilmiy tadqiqotlar natijalari amaliyotga sust joriy etilmoqda;
• **uchinchidan**, oilaning demografik rivojlanishida o‘zgarishlar yuz bermoqda, oila ajralishlari soni o‘smoqda, mazkur sohada salbiy tendensiyalar va muammolar sabablarini asoslovchi tadqiqotlar yetishmayapti;
• **to‘rtinchidan**, oilada, ta'lim muassasalarida madaniy-tarixiy meros salohiyatidan sust foydalanilmoqda, milliy mentalitetimizga yot bo‘lgan g‘oya va qarashlar ta'sirining oldini olish borasidagi ishlar samarasiz;
• **beshinchidan**, oila institutini mustahkamlashning qonunchilik asoslari mukammal emas, huquqni qo‘llash amaliyotini va ilg‘or xorij amaliyotini o‘rganish asosida oilani himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash sohasida mustahkam huquqiy asos mavjud emas;
• **oltinchidan**, mutaxassislar yetishmaydi va kadrlar malakasi past darajada, ta'lim tizimida mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojni prognozlashtirish mexanizmi yo‘lga qo‘yilmagan, oila institutini mustahkamlash va rivojlantirish bo‘yicha o‘quv dasturlari mukammal emas.



Oila institutini takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, bu jarayonda davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolarning yaqin hamkorligini hamda faol rolini ta'minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5325-son Farmoni e’lon qilingan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, umumjamiyatimiz asosi hisoblanmish oilalar baxti va unga salbiy ta'sir ko‘rsatayotgan ayrim omillar, aniqrog‘i muammoning psixologik tomoni obdon tadqiq va tahlil qilinishga muhtoj.

15 may - Xalqaro oila kuni: O‘zbek oilasi - ma’naviyat, ma’rifat qo‘rg‘oni



O‘zbek oilasi deganda ko‘z oldimizda bir uy bola-chaqali, mo‘’tabar bobo-buvi, ota-onalarimiz, farzandlar, nabiralardan iborat katta bir qo‘rg‘on gavdalanadi. Bu - ma’nviyat, ma’rifat, tarbiya qo‘rg‘oni.
Oilada Vatanga sadoqat, ota-onaga oqibat, oila a’zolari o‘rtasida o‘zaro hurmat, mehr-muruvvat omillari o‘sib kelayotgan yosh avlod ongiga singdiriladi. Oiladagi ma’naviy muhitni barqarorlashtirish ota-onada farzandlar, farzandlar oldida ota-onaga nisbatan burchlarini, ularning jamiyat oldidagi mas’uliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Hech bir ta’lim-tarbiya farzandlar oilada, to‘kin dasturxon atrofida jamuljam bo‘lgan bobo-buvi-yu, ota-onalaridan olgan nasihat-u o‘gitichalik kuch-quvvatga ega emas.

Zotan, oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlovchi, milliy qadriyatlar rivojini ta’minlovchi, ma’naviy va jismoniy barkamol avlodni dunyoga keltirib tarbiyalovchi maskandir.

Shu bois ham BMT Bosh Assambleyasining 1993 yilgi yig‘ilishida 1994 yildan boshlab har yili 15 mayni Xalqaro oila kuni sifatida nishonlashga qaror qilingan. Bu qarorni qabul qilishdan maqsad barcha taraqqiyparvar va tinchlikparvar insoniyat diqqatini inson o‘z umrini o‘tkazadigan, o‘z orzu-umidlari, baxtu saodatini hamda tinchligini ta’minlaydigan maskan – oilaning mustahkam bo‘lishiga qaratishdir. Bu albatta, bejiz emas. Chunki oiladagi ma’naviy muhit, sog‘lom kayfiyat, barqarorlik jamiyat hayotining asosini ta’minlovchi kuchdir.

15-may Butunjahon oila kuni



BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyasiga binoan 1993 yildan beri 15 may - Xalqaro oila kuni sifatida nishonlanib kelinadi. Oila bo‘g‘iniga alohida bir kun ajratilishining asosiy sabablaridan biri BMT ta’rificha “Bir oila - butun insoniyat oilalarining birligidir”, u jamiyatning kichik bo‘g‘ini, vatan ichra vatandir. Jamiyat a’zosining tom ma’nodagi yetuk shaxs, komil inson bo‘lib yetishishi uzluksiz oila bilan bog‘liq. Chunki oila jamiyat asosi va hayot davomchisi bo‘lgan farzandlar kamol topadigan tarbiya maskani hisoblanadi. Shuningdek, bugungi kunda jadal rivojlanib borayotgan jamiyatning o‘zagi bo‘lmish mehr-muhabbat, hurmat, sadoqat, insoniylik, dahldorlik manbai ham oiladir.

Qachon oilalar salohiyatli bo‘lsa, bunday oilalardan tashkil topgan jamiyat ham salohiyatli bo‘ladi.

Shuning uchun dinimiz ham oilaga iymon, muhabbat, ta’lim-tarbiya va baxtli hayot sari yo‘llovchi maskan sifatida qarashni vojib qilgan.

Eru xotin o‘rtasidagi munosabat qanchalik barqaror bo‘lsa, oila shunchalik mustahkam bo‘ladi, farzandlarni tarbiyalanishi to‘g‘ri olib boriladi.Ular o‘rtasida nikoh ahdining bardavom bo‘lishi va mehr-muhabbat bilan hayot kechirish erdan ham, ayoldan ham o‘ta mas’uliyatli va nihoyatda nozik munosabatlarni talab qiladi.

Bugun yoshlar orasida oilalarning buzilishi ko‘payib borayotgani sir emas. Bu masala hozirgi paytda nafaqat xalqimiz, balki butun dunyo xalqlarini tashvishga solib turibdi. Bu borada davlat va jamoat tashkilotlarida juda ko‘p ilmiy anjumanlar tashkil etilyapti, tadqiqotlar

o‘tkazilyapti va qarorlar qabul qilinyapti. Mutaxassislarning ta’kidlashicha oilada mehr-muhabbatning yuzaga kelishi va hukm surishi uchun quyidagi shartlarning bo‘lishi ko‘zda tutiladi:

-oila a’zolarining bir-birini qadrlashi;

-oila a’zolarining bir-birlariga ishonishi va himoyalashi;

-yaqinlik, o‘zaro yordam va o‘y-fikrlarini o‘rtoqlashish;

-mas’uliyatni his qilishlari (ota-onalarning o‘z burch va mas’uliyatlarini his etishi);

-qiyinchiliklarga qarshi birgalikda kurashib, ularni hal qilishlari;

-o‘zligini ifoda eta olish va baxtli yashash uchun munosib muhit yarata olish;

-sog‘lom moddiy va ma’naviy hayotga ega bo‘lishlari.

Oilani mustahkamlashga xonadonning har bir a’zosi mas’ul ekanini unutmaslik lozim. Qaynonalar ham, kelinlar ham, ota-o‘g‘illar, qudalar ham bir-birlarining xatolaridan fojia yasamay, oilani asrab qolish uchun astoydil harakat qilsalar, bunday xonadon chinakam mehr-muhabbat maskaniga aylanadi.

Oila - baxt va halovat qo‘rg‘onidir



Bugun, 15 may - Xalqaro oila kuni. Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlovchi, milliy qadriyatlar rivojini ta’minlovchi, ma’naviy va jismoniy barkamol avlodni dunyoga keltirib tarbiyalovchi maskandir.

O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi qaror hamda Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yana-da qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi farmonlarda ushbu kunni nishonlash to‘g‘risida belgilangan.

Yurtimizda oilani mustahkamlash borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar xalqaro hamjamiyatlarda yuksak e’tiroflarga sazovor bo‘layotganligi ham bejiz emas.

Qonunchilikka nazar solsak oilaga katta e’tibor berilganligini, jumladan, uni qanday tashkil qilish, oila a’zolarining huquqlari va burchlari, umuman oilaviy hayotning barcha masalalariga urg‘u berib o‘tilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Ma’lumki, oila mehr-muhabbat hurmat va hamjihatlik manbai asosida yetuk jamiyatni barpo etadi. Oilaning farovonligi mamlakat rivojining o‘lchovi sifatida baholanadi.

Zero, oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlovchi, milliy qadriyatlar rivojini ta’minlovchi, ma’naviy va jismoniy barkamol avlodni dunyoga keltirib tarbiyalovchi maskandir.

Barcha oilalar hamisha tinch va farovon bo‘lsin.

Foydalanilgan manbalar

1. O‘zbekitson milliy ensiklopediyasi 3- jild.. Zebunniso-Konigil. Tahrir hayyati: M.Aminov, T.Daminov, T.Dalimov va b. T.:“O‘zbekitson milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2002.701-b

2. **Islomov Z.** Oila muqaddas-dargoh: / Z. Islomov // Ma’rifat.- 2023. – 11 may.

3. nhrc.uz (http://nhrc.uz/uz/news/m10699)